

Oriental Journal of Education



ASPECTS OF YOUTH EDUCATION

Alimjon Oblokulovich Khudoukulov*Independent researcher**Chirchik state pedagogical university*nargizalimrayhon@gmail.com*Chirchik, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: youth education, spiritual education, moral education, national ideology, family, educational methods, social environment, spiritual values, youth policy, patriotism, spiritual immunity, pedagogical process.

Received: 05.06.26**Accepted:** 06.06.26**Published:** 07.06.26

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of youth education, the role of upbringing in the development of society, and the issues of forming a spiritually, morally, socially, and intellectually mature younger generation. The article highlights the main methods of education, including verbal education, visual methods, practical example methods, as well as encouragement and punishment methods. It also analyzes the role of the family in youth upbringing, the importance of national ideology in shaping the spirituality of young people, and current issues of youth education in the modern information environment.

YOSHLARNI TARBIYALASH JIHATLARI

Alimjon Obloqulovich Xudoyqulov*Chirchiq davlat pedagogika**universiteti mustaqil tadqiqotchisi*nargizalimrayhon@gmail.com*Chirchiq, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: yoshlar tarbiyasi, ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, milliy g'oya, oila, tarbiya usullari, ijtimoiy muhit, ma'naviy qadriyatlar, yoshlar siyosati, vatanparvarlik, ma'naviy immunitet, pedagogik jarayon.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarni tarbiyalashning nazariy va amaliy jihatlari, tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va intellektual jihatdan barkamol etib tarbiyalash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, tarbiyaning asosiy usullari, jumladan so'z orqali tarbiyalash, ko'rgazmalilik, amaliy ibratnamuna, rag'bat va jazo usullarining ahamiyati yoritilgan. Maqolada oilaning yoshlar

tarbiyasidagi oʻrni, milliy gʻoyaning yoshlar maʼnaviyatini shakllantirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy axborot muhitida yoshlarni tarbiyalashning dolzarb masalalari tahlil etilgan.

АСПЕКТЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Алимжон Облокулович Худойкулов

Независимый исследователь Чирчикский

государственный педагогический университет

nargizalimrayhon@gmail.com

Чирчик, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
воспитание молодежи, духовное воспитание, нравственное воспитание, идея, семья, методы воспитания, среда, духовные ценности, политика, патриотизм, педагогический процесс.	В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты воспитания молодежи, роль воспитания в развитии общества, а также вопросы формирования духовно-нравственно, социально и интеллектуально развитого молодого поколения. Освещаются основные методы воспитания, включая словесное воспитание, наглядный метод, метод практического примера, а также методы поощрения и наказания. В статье анализируется роль семьи в воспитании молодежи, значение национальной идеи в формировании духовности молодежи и актуальные проблемы воспитания в условиях современного информационного пространства.

Kirish. Mamlakatimizda yoshlarni tarbiyalash, ularni bilim olishga, mehnat qilishga undash va oʻrgatish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Tarbiya jarayoniga toʻxtaladigan boʻlsak, toʻgʻri tarbiya jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyos hisoblanadi. Chunki yosh avlod yurtimiz kelajagi va istiqbolini belgilovchi asosiy kuch hisoblanadi. Mamlakatimiz yoshlarining maʼnaviy yetuk, ahloqan pok, jismonan sogʻlom va baquvvat, intellektual salohiyatli boʻlib voyaga yetishi jamiyat taraqqiyoti va davlat barqarorligining muhim omilidir.

Muhokama va natijalar. Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida yoshlar tarbiyasi masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari, internet tarmoqlari, ommaviy madaniyat va turli mafkuraviy taʼsirlar yoshlar ongi va dunyoqarashiga kuchli taʼsir koʻrsatmoqda. Bu esa yoshlarda mustaqil fikrlash, maʼnaviy immunitet, milliy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Yoshlarni turli yot gʻoyalar, maʼnaviy tahdidlar va axloqiy buzilishlardan asrash jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi [1, B. 283-291.].

Yoshlar ko‘proq ota-ona, aka-uka, opa-singil, qo‘ni-qo‘shni, shuningdek yaqin do‘stlarining birlariga bo‘lgan muommala va munosabatlarini ko‘rishish orqali shakllanib borishadi. Ular borliqni boricha qabul qilishadi, unga taqlid qilishadi hamda o‘z hayotlarida qo‘llashga intilishadi. Bu odatlar yoshlar hayotida shakllanib boradi va ularning tarbiyasida namayon bo‘ladi. Bunday odatlar nafaqat oilada, balki jamiyatning barcha jabhasida ko‘rinadi.

Tarbiya inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy pedagogik jarayon hisoblanadi va insonning shaxs sifatida shakllanishiga va kamol topishiga xizmat qiladi. Bola dunyoga kelgandan keyin dastlab oila keyinchalik jamiyat, ta‘lim muassasalari, va atrof-muhit ta‘sirida tarbiyalanib boradi. Shu bois tarbiya insonning axloqiy fazilatlari, ma‘naviy qarashlari, dunyoqarashi va hayotga munosabatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tarbiya insonning nafaqat shaxsiy hayotiga, balki jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy munosabatlariga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi [2, B. 311-315.].

Yosh avlod tarbiyasida oilaning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Oila inson uchun birinchi tarbiya maskani bo‘lib, farzandning ma‘naviy, axloqiy va psixologik shakllanishi aynan oila muhitida boshlanadi. Ota-ona, aka-uka, opa-singil va yaqinlarining o‘zaro munosabati, mehr-oqibati, mas‘uliyati va hayot tarzi farzand uchun amaliy namuna vazifasini bajaradi. Agar oilada sog‘lom ma‘naviy muhit hukm sursa, farzand ham sog‘lom fikrlaydigan, axloqli va mas‘uliyatli inson bo‘lib voyaga yetadi [3, B. 41-53.].

Shu bilan birga, ta‘lim muassasalari ham yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Maktab, litsey, kollej va oliy ta‘lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki yoshlarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. O‘qituvchi va murabbiylarning kasbiy mahorati, ma‘naviy dunyoqarashi va shaxsiy namunasi yoshlar tarbiyasiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli ta‘lim tizimida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratilmoqda [4, B. 156-168.].

Tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan usul va vositalar ham muhim ahamiyatga ega. So‘z orqali tarbiyalash, ko‘rgazmalilik, amaliy ibrat-namuna, rag‘bat va jazo usullari inson ongi va xulq-atvoriga ta‘sir ko‘rsatish orqali ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, amaliy namuna, shaxsiy ibrat yoshlar tarbiyasida eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Chunki yoshlar ko‘proq ko‘rganiga va kuzatganiga taqlid qiladi [5, B. 88-96.].

Bugungi kunda yoshlarni milliy g‘oya hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy g‘oya yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik burchi va jamiyat oldidagi mas‘uliyat tuyg‘ularini shakllantiradi. Shu bilan birga, milliy g‘oya yoshlarni turli yot g‘oyalar, shunindek ma‘naviy tahdidlardan himoya qiluvchi muhim mafkuraviy vosita hisoblanadi [6, B. 57-64.].

Shu sababli yoshlarni tarbiyalash masalasiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Yoshlarni ma‘naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan barkamol inson qilib tarbiyalash, ularda faol

fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda jamiyat hayotida munosib o'rin egallashlariga ko'maklashish mamlakatimiz taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada yoshlarni tarbiyalashning nazariy va amaliy jihatlari, tarbiya usullari, oila va ta'lim muassasalarining o'rni, milliy g'oyaning ahamiyati hamda zamonaviy axborot muhitida yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq dolzarb masalalar tahlil qilinadi.

Yoshlarni tarbiyalash jamiyat kelajagini belgilaydigan asosiy va muhim jarayon hisoblanadi. Yosh avlod jamiyatning umidlari, orzulari va harakatlarining amaliy ifodasi hisoblanadi. Yoshlar jamiyatning barcha sohalari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Shuning uchun yosh avlodni tarbiyalashda oila, o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik shuningdek, davlat muassalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy jamiyatda yoshlarning psixologiyasi, ijtimoiy munosabatlari va ta'lim tizimi tez sur'atlarda o'zgarmoqda. Axborot texnologiyalari, kibermadaniyat, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi yoshlar tarbiyasida yangi yo'nalishlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu jarayonda oilaning o'rni, ta'lim tizimi va ijtimoiy muhitning ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi [7, B. 283-291.].

Tarbiyaga ta'rif beradigan bo'lsak, har bir shaxs hayoti davomida olgan bilimlari, egallagan malakalari va ijobiy ko'nikmalarini boshqalarga yetkazish jarayonini ham tarbiya deb atash mumkin.

Keling o'z navbatida tarbiya tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo'lib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisidir. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan ikkinchi avlodga o'tadi [8, 8.t, B. 96-99.].

Pedagogikaga oid manbalarda "tarbiya" tushunchasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Tarbiyaning keng ma'noda qo'llanilishi inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyatda ijtimoiy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, harakatlar va tadbirlar yig'indisini anglatadi. Bunday atamada tarbiya faqat oila, maktab yoki yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar bilan cheklanib qolmay, balki adabiyot, san'at, kino, radio, televidenie va boshqa ijtimoiy institutlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Tarbiyaning tor ma'noda qo'llanilishi esa shaxsning jismoniy rivojlanishi, keng dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi va estetik didini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Ta'lim, ma'lumot olish jarayoni esa ushbu tarbiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, insonning nafaqat bilim darajasini, balki ma'naviy fazilatlarini ham rivojlantirib boradi.

Tarbiya jarayonida tarbiya samaradorligini oshirish tarbiyaning qanday usullaridan foydalanganligiga bog'liq bo'ladi. Yosh avlodni tarbiyalashda so'z orqali tarbiyalash, ko'rgazmalilik, amaliy ibrat-namuna, rag'bat va jazo usullaridan keng foydalanib tarbiya jarayonini amalga oshirish mumkin.

So'z orqali tarbiyalashda shaxsga ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni, odob-axloqni, fikrlash tarzi va harakatlarni shakllantirishda so'zning kuchidan foydalanish usulidir. Bu usul insonning fikr va his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatib, uning ruhiy rivojlanishiga va o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga yordam beradi.

Yoshlarni so'z orqali tarbiyalash ularning axloqiy, ma'naviy va ruhiy rivojlanishiga yo'l ochuvchi samarali usul hisoblanadi. To'g'ri va ibratli so'zlar insonning ichki dunyosida o'zgarishlar yuzaga keltirib, uning jamiyat va shaxsiy munosabatlarda ijobiy natijalarga erishishiga xizmat qiladi. So'zlar yoshlarga hayotning aniq qoidalari, axloqiy me'yorlari va hayotiy falsafasini o'rgatadi hamda ularga hayotda to'g'ri yo'lni tanlashga yordam beradi.

So'z orqali tarbiyalash shunchaki o'rgatish emas, balki insonni o'z ehtiyojlari va maqsadlarini anglashga undaydi. Bu usul insonning fikrlash darajasini oshiradi. So'z orqali tarbiyalashda tasvirlash, ta'riflash va har bir o'zgarishni izchil bayon qilish muhim hisoblanadi. Shuningdek, hikoya, ma'ruza, suhbat va maslahat kabi shakllar keng qo'llaniladi.

Ko'rgazmalilik usulida tarbiya jarayonida vizual materiallar va ob'ektlar orqali ta'lim va tarbiya berish usulidir. Bu usulda nazariy bilimlar, tushunchalar hamda qoidalar insonga ko'rish orqali yetkaziladi. Ko'rgazmalar, tasvirlar, modellar, diagrammalar, slaydlar va videoroliklar insonning tasavvurini, diqqatini va qiziqishini oshiradi.

Ko'rgazmalilik usuli insonning ma'lumotlarni tez va samarali qabul qilishiga yordam beradi. Vizual vositalar orqali murakkab tushunchalarni soda, aniq shaklda tushuntirish mumkin. Bu usulda kinofilmlar, tasviriy san'at, badiiy san'at hamda boshqa vizual vositalardan keng foydalaniladi.

Amaliy ibrat-namuna usulida tarbiya jarayonida insonga ijobiy xulq-atvor va to'g'ri ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish uchun amaliy harakatlar va namuna ko'rsatish usulidir. Insonlar atrofdagilarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali o'rganadi va o'z hayotida qo'llaydi.

Bu usulning asosiy maqsadi nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilish va insonda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Muhabbat, hurmat, adolat, mas'uliyat va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar amaliy harakatlar orqali yoshlarga singdiriladi. Tarbiya beruvchi shaxsning shaxsiy namunasi yoshlar uchun eng muhim tarbiyaviy vositalardan biri hisoblanadi.

Rag'bat va jazo usullarida insonning ijobiy xulq-atvorini mustahkamlash va salbiy xatti-harakatlarni bartaraf etishga qaratilgan tarbiya usullaridir. Rag'bat insonni yaxshi amallarga undaydi, jazo esa salbiy xatti-harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Rag‘bat usuli insonga uning ijobiy faoliyati uchun maqto‘v, mukofot va qo‘llab-quvvatlash orqali ta‘sir ko‘rsatishni anglatadi. Bu insonni yangi yutuqlarga, faollikka va ijtimoiy mas‘uliyatga undaydi. Inson o‘zining yaxshi ishlari qadrlanayotganini his qilganda, yanada katta natijalarga intiladi.

Tarbiya jarayoni orqali yoshlarda ma‘naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy mas‘uliyat, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mustaqil fikrlash va ijobiy xulq-atvor shakllanadi. Shu bilan birga, tarbiya insonning dunyoqarashi, hayotga munosabati, jamiyatdagi o‘rni va kelajak maqsadlarini belgilab beruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tarbiya jarayoni to‘g‘ri va samarali tashkil etilgan jamiyatda barkamol shaxslarni voyaga yetkazish imkoniyati yuqori bo‘ladi.

Tarbiyaning so‘z orqali tarbiyalash, ko‘rgazmalilik, amaliy ibrat-namuna, rag‘bat va jazo kabi usullari yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘z orqali tarbiyalash inson ongi va tafakkuriga ta‘sir etib, unda ezgu g‘oyalar va ma‘naviy qadriyatlarni shakllantiradi. Ko‘rgazmalilik usuli insonning tasavvurini boyitish, ma‘lumotlarni tez va samarali qabul qilish imkonini beradi. Amaliy ibrat-namuna usuli esa yoshlarning atrofdagilar xatti-harakatlaridan o‘rnak olishi orqali ijobiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Rag‘bat va jazo usullari esa insonda intizom, mas‘uliyat va ijobiy faollikni mustahkamlaydi.

Yoshlarni tarbiyalash prinsiplari – yosh avlodning shaxsiy, axloqiy va ijtimoiy rivojini ta‘minlashga qaratilgan asosiy qoida va yo‘nalishlar yig‘indisidir. Tarbiya yoshlarda ijobiy xususiyatlarni shakllantirishga, axloqiy va ma‘naviy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Tarbiya jarayoni uzluksiz, tizimli va izchil bo‘lishi kerak. Shu bilan birga har bir yoshning individual xususiyatlari, qobiliyati va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning axloqiy, ma‘naviy, intellektual va jismoniy rivojiga bir vaqtning o‘zida e‘tibor qaratish tarbiyaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarda ijtimoiy mas‘uliyat, mustaqil fikrlash va jamiyat hayotida faol ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Yoshlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularning qadr-qimmatini tan olish va mustaqil qaror qabul qilishlariga yordam berish tarbiyaning muhim prinsiplaridan sanaladi [9, B. 133-148.].

Keling o‘z navbatida oila tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tamiz. Oila – yoshlarning axloqiy, ma‘naviy va ijtimoiy rivojini shakllantirishdagi asosiy va muhim institutlardan biri hisoblanadi. Oila inson uchun birinchi tarbiya maktabi bo‘lib, farzandning xulq-atvori, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yoshlarni tarbiyalashda oilaning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Oila inson hayotidagi birinchi tarbiya maktabi bo‘lib, farzandning ma‘naviy va axloqiy shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Oiladagi muhit, ota-onaning farzandga bo‘lgan munosabati, ularning shaxsiy namunasi yoshlarning kelajakdagi hayot tarzi va ijtimoiy munosabatlariga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois oilada sog‘lom

ma'naviy muhitni shakllantirish va farzandlarga to'g'ri tarbiya berish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Oila yoshlarga axloqiy qadriyatlar, inson huquqlari, adolat, haqqoniylik, mehr-oqibat va insonparvarlik tuyg'ularini singdiradi. Oiladagi muhit farzandning ruhiy sog'ligi va emotsional barqarorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ota-ona, oila a'zolarining xatti-harakati farzand uchun amaliy namuna vazifasini bajaradi. Agar oilada samimiylik, mehribonlik, adolat, mas'uliyat ustuvor bo'lsa, farzandlarda ham ushbu sifatlar shakllanadi.

Oiladagi munosabatlar yoshlarning ijtimoiy rivojiga, jamiyat bilan muloqot qilish ko'nikmalariga va mustaqil hayotga tayyorgarligiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, oila farzandning ruhiy holati va psixologiyasining shakllanishida muhim o'rin tutadi [10, B. 61-84.].

Shu bilan birga, ta'lim muassasalari va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi tarbiya samaradorligini ta'minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi. Maktab, litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirish vazifasini ham bajaradi. O'qituvchi va murabbiylarning kasbiy mahorati, ma'naviy salohiyati va shaxsiy namunasi yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy rivojlanishini ta'minlash jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Barkamol, bilimli, ma'naviy yetuk va mustaqil fikrlaydigan yoshlarga mamlakatning kelajagini ta'minlay oladi. Shu sababli yoshlar tarbiyasi masalasi doimo davlat, jamiyat, oila va ta'lim muassasalarining diqqat markazida bo'lishi lozim.

Xulosa. Yoshlarni tarbiyalash jamiyat taraqqiyoti va davlat kelajagini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday davlatning taraqqiyoti, uning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy salohiyati, eng avvalo, yosh avlodning qanday tarbiya topishi bilan bevosita bog'liqdir. Ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli, vatanparvar va fuqarolik mas'uliyatini his etadigan yoshlar jamiyatning asosiy tayanchi va kelajak bunyodkorlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. – 464 bet.
2. Pedagogika ensiklopediyasi. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 512 bet.
3. Quronov M. Oila pedagogikasi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2018. – 224 bet.
4. Xasanboev J.H. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: “Fan”, 2019. – 384 bet.
5. Saidov A.S. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2020. – 240 bet.

6. Gʻaniev K. Milliy gʻoya va maʼnaviyat asoslari. – Toshkent: “Maʼnaviyat”, 2017. – 288 bet.
7. Mirziyoev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2021. – 464 bet.
8. Tarbiya // Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 8 jild. – 704 b.
9. Gʻoziev E.Gʻ. Tarbiyaviy ishlar nazariyasi. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 2016. – 368 bet.
10. Quronov M. Oila pedagogikasi. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 2018. – 224 bet